

SHARQ MASH'ALI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

4
2024

*Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yildan chiga boshlagan
Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi
ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)*

Bosh muharrir:
G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:

D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinbosari)

X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)

A. MANNONOV (prof., f.f.d.)

Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)

R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)

SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)

Q. OMONOV (prof., f.f.d.)

U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)

D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)

X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)

B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)

A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)

M. ISHQOV (prof., t.f.d.)

X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)

D. XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD)

SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)

N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)

A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)

R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)

I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)

R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)

E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)

A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya univ. prof.)

G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.)
ONO MASAKI (Yaponianing Tsukuba univ. prof.)

LIDJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar univ. prof.)

V. MESAMED (Isroiuning Quddus univ. prof.)

A. GURER (Turkiyaning Ankara univ. prof.)

A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)

G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.)

A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)

S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)

H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)

Nashrga tayyorlovchilar:

J. ISMOILOV, H. SULAYMONOVA
L. HAMDAMZODA,
G. HUSHNAZAROVA

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal original-maket asosida bosildi.

Sharq mash'ali, 2024 yil 4-son.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz

web-site: www.tsuos.uz

Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 4, 2024-yil

<p>Adabiyotshunoslik</p> <p>Tilshunoslik</p> <p>Tarix</p> <p>Tashqi siyosat</p>	<p>Muhiddinova D. Zamonaviy arab va o'zbek yozuvchilari asarlarida qur'oniy qissa va rivoyatlarning badiiy talqini 2</p> <p>Turdiyeva O. Eronda hikoya janri taraqqiyotida Muhammad Ali Jamolzodaning o'rni 7</p> <p>Ashurova M. Xitoy adabiyotida esse janrining paydo bo'lishi va taraqqiyoti 14</p> <p>Yusupova D. Siyovush Kasroiy she'riyatida Simurg' qushi talqini 22</p> <p>Umarova N. "Quyonlar" qisqa romanida lakonizm va badiiy til xususiyatlari 28</p> <p>Jo'rayeva X. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi ... 35</p> <p>Korayem S. Modern linguistic trends in language education 42</p> <p>Азимжанова Д., Абсаломова Н. Выражение гнева в персидском языке: лингвистический и культурологический анализ 54</p> <p>Abubakirov J. "Gunki monogatari" badiiy til xususiyatlari va tipologiyasi 64</p> <p>Muxammadjonov A. "Arab tilida sinonimiya, uning leksik-семантik rivojlanish sabablari: klassik va zamonaviy yondashuvlar" 71</p> <p>Shukurov A. Arab tilidagi harbiy atamalarni tasniflashning o'ziga xos xususiyatlari 81</p> <p>Xodjimuratova D. Eron davlat boshqaruvi tizimida diniy va dunyoviy institutlarning o'rni 90</p> <p>Taylaqov T. Falastinning demografik tarixi 96</p> <p>Худайбердиева С. Изучение пожилых людей в геронтологии и их типы 104</p> <p>Kushanova Y. Markaziy Osiyo va Fransiya munosabatlari tadqiqotchilar nigohida 113</p> <p>Sayfullayev N. Turkiya tashqi siyosati bo'yicha asosiy mafkuraviy yondashuvlar 121</p> <p>Xayrullayeva I. Hindiston ta'lif sohasida xotinqizlar ishtiroki va ahamiyati (Uttar-pradesh shtati misolida) 129</p> <p>Qalandarov O'. Eronning 1979-yildagi inqilobdan keyin Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi 144</p>
---	--

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. جورج سالم. حكاية الظما النديم. قصص. – مشق: منشورات إتحاد الكتاب العرب. 1976. – ص. 53-58.
2. Мухтар О. Мұхаббат үлімдан күчли (Денгиз туби сахро қаърида). Роман. Т., F. Ғулом, 2012.
3. Мустақиллик даври адабиети. Адабий-танқидий мақолалар, бадиалар. Т., F. Ғулом, 2006.
4. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. Т., Маънавият, 2000.
5. Фарб фалсафаси. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти «Шарқ», 2004.
6. Ҳусайнин А. Бадойиъ-с-санойиъ: Аруз вазни ва бадиий воситалар ҳақида. – Т.: F. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1981.
7. Куръони Карим.



ERONDA HIKOYA JANRI TARAQQIYOTIDA MUHAMMAD ALI JAMOLZODANING O'RNI

OYDIN TURDIYEVA

Dotsent, f.f.d., TDSHU

ORCID: 0000-0002-5202-1888

Annotatsiya. Maqola Eronda hikoya janri taraqqiyotida Muhammad Ali Jamolzodaning o'rni haqida. Shuningdek, maqlolada ushbu janr kirib kelguniga qadar bo'lgan adabiy jarayonlar hamda ziddiyatlar ochib beriladi. Ma'lumki, XIX asr o'rtalariga qadar badiiy nasr pandhoma hikoyatlar, tarixiy-qahramonlik, fantastik asarlar, ertaklar shaklida ifodalab berilgan. Bu janrlarning ayrimlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan va zamonaliv fors badiiy nasrining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bir tomonidan ming yillar mobaynida yaratilgan nasriy janrlar Eronda yangi hikoyanavislikning vujudga kelishida muhim omil hisoblanadi. O'rta asrlar adabiyoti syujetlari, obrazlari, iboralari, umuman badiiyati yangi davr hikoyanavisligi uchun tunganmas xazina sifatida xizmat qildi va xizmat qilib kelmoqda. Ikkinchi tomonidan Eron adabiyotiga yangi tipdagi hikoya janrinining kirib kelishi Yevropa adabiyotidan bo'lgan ta'sir bilan ham belgilanadi.

Mashrutiyat (مشروطیت), ya'ni konstitutsiyon tuzum davrining oxirlari –1915-yildan so'ng an'ana va yangilanish to'g'risidagi bahs yanada keng quloch yoyib ketdi. Eronda adabiy o'zgarishlarga qarshi chiqib, qadim mumtoz uslubdan boshqa uslubda qalam tebratishni istamaganlar, yangicha uslubda yozishni tan olmagan adabiyot ahli juda ko'pchilikni tashkil etardi.

Bu davrda yangi tipdagi hikoyaning eng asosiy adabiy nazariyotchisi va targ'ibotchisidan yana biri Muhammad Ali Jamolzoda edi. Muhammad Ali Jamolzodaning 1922-yilda Berlinda "پکى بود و يكى نبود", ya'ni "Bor ekanda yo'q ekan" ilk hikoyalari to'plami chiqdi. Bu voqeа yozuvchining yurti Eronda katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Shu to'plami bilan u Eron adabiyotiga yangi janr – hikoyani olib kirdi. Uning nomi zamonaliv Eron adabiyotining asoschilaridan biri bo'lib tarixda qoldi. To'plamdan joy olgan hikoyalari satirik va yumoristik ruhda bo'lib, Jamolzoda xalq hayoti, urf-odatlari, rasm- rusumlarini ko'rsata oldi, o'tkir siyosiy mavzularini qalamga ola bildi.

Kalit so'zlar: Eron, hikoya, mashrutiyat, Muhammad Ali Jamolzoda, adabiy tanqid, adabiy jarayonlar.

Аннотация. Статья посвящена роли Мухаммеда Али Джамалзаде в развитии жанра рассказа в Иране. В статье также раскрываются литературные процессы. Известно, что до середины XIX века художественная проза выражалась в виде рассказов, историко-героических, фантастических произведений, сказок. Некоторые из этих жанров сохранились до наших дней и оказали большое влияние на формирование современной персидской художественной прозы. С одной стороны, прозаические жанры, создававшиеся на протяжении тысячелетий, являются важным фактором появления нового стиля

повествования в Иране. Сюжеты, образы, фразы, в целом художественность средневековой литературы служили и продолжают служить неисчерпаемым сокровищем для повествования новой эпохи. С другой стороны, появление в иранской литературе нового типа повествовательного жанра обусловлено также влиянием европейской литературы.

После конституционного периода (**مشروعیت**), то есть в 1915 году, дебаты о традициях и обновлении получили более широкое распространение. Было много литераторов, которые выступали против литературных изменений и не хотели писать в стиле, отличном от старого классического стиля, и не признавали новый стиль письма в Иране.

В этот период одним из главных теоретиков литературы и сторонников нового типа повествования был Мухаммед Али Джамалзаде. Первый сборник рассказов Мухаммеда Али Джамалзаде “**يکی و یکی نبود**” (“Йеки буд ва йеки набуд”) был опубликован в Берлине в 1922 году. Это событие вызвало большой резонанс в стране писателя, Иране. Этим сборником он ввел в иранскую литературу новый жанр - рассказ. Его имя вошло в историю как одного из основоположников современной иранской литературы. Рассказы, вошедшие в сборник, сатиричны и юмористичны по духу, и Джамалзаде сумел показать жизнь людей, обычаи, обряды, а также написать на острые политические темы.

Ключевые слова: Иран, рассказ, конституционный период, Мухаммед Али Джамалзаде, литературная критика, литературные процессы.

Annotation. The article is about the role of Muhammad Ali Jamalzadeh in the development of the narrative genre in Iran. The article also reveals the literary processes and conflicts before the introduction of this genre. It is known that until the middle of the 19th century, artistic prose was expressed in the form of penname (books on ethics) stories, historical-heroic, fantastic works, fairy tales. Some of these genres have survived to this day and had a great influence on the formation of modern Persian artistic prose. On the one hand, prose genres created over thousands of years are an important factor in the emergence of new storytelling in Iran. Plots, images, phrases, in general, artistry of medieval literature served and continue to serve as an inexhaustible treasure for the storytelling of the new era. On the other hand, the introduction of a new type of narrative genre into Iranian literature is determined also by the influence of European literature.

After Mashrutiyyat (**مشروعیت**), that is, the end of the period of the constitutional system in 1915, the debate on tradition and renewal became more widespread. There were many literary people who opposed the literary changes and did not want to write in a style other than the old classical style, and did not recognize the new style of writing in Iran.

During this period, one of the main literary theoreticians and advocates of the new type of story was Muhammad Ali Jamalzadeh. Muhammad Ali Jamalzadeh's first collection of stories, “**یکی نبود و یکی بود**” (Yeki bud wa yeki nabud), i.e. “Once upon a time” was published in Berlin in 1922. This event caused a great uproar in the writer's country, Iran. With this collection, he introduced a new genre into Iranian literature - the story. His name went down in history as one of the founders of modern Iranian literature. The stories included in the collection are satirical and humorous in spirit, and Jamalzadeh was able to show people's life, customs, rituals, and write sharp political topics.

Keywords: Iran, short story, mashrutiyat, Muhammad Ali Jamalzade, literary criticism, literary processes.

KIRISH. XIX asr o‘rtalariga qadar badiiy nasr pandnoma hikoyatlar, tarixiy-qahramonlik, fantastik asarlar, ertaklar shaklida ifodalab berilgan. Bu janrlarning ayrimlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan va zamonaviy fors badiiy nasrining shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Ming yillar mobaynida yaratilgan nasriy janrlar Eronda yangi hikoyanavislikning vujudga kelishida muhim omil hisoblanadi. O‘rta asrlar adabiyoti syujetlari, obrazlari, iboralari, umuman badiiyati yangi davr hikoyanavisligi uchun tuganmas xazina sifatida xizmat qildi va xizmat qilib kelmoqda.

Eron adabiyotiga yangi tipdagi hikoya janrining kirib kelishi Yevropa adabiyotidan bo‘lgan ta‘sir bilan ham belgilanadi. Buni Eron olimlari doktor Hamid Abdullohiyon¹, G‘ulomrizo Murodiy

¹ دكتار حميد عبد اللهيان. کارنامه نثر معاصر. تهران. 2000.

SHARQ MASJALI

Savma'saroyi¹, Muhammad Huquqiy², Jamol Mirsodiqiy³, Muhammad Qosimzoda⁴ kabi adabiyotshunoslar o'zlarining nazariy asarlarida ta'kidlab o'tganlar.

Adabiyotlar tahlili. Doktor Hamid Abdullohiyon (“Карнаме шер мактаби” (“Zamonaviy nasr solnomasi”) asarining bir bo'limini “Eron adabiyotiga roman va hikoyaning kirib kelishi” deb nomlaydi va unda yuqoridagi janrlarning kirib kelishini quyidagicha ko'rsatadi: “Eronga roman va hikoya janrining kirib kelishi uchun adabiy o'zgarishlarga ehtiyoj bor edi. Mashrutiyat (konstitutsion tuzum)gacha esa bunday adabiy o'zgarishlar sodir bo'lmasdi. Mashrutiyatning o'zi ham Qojorlar davridan boshlab vujudga kelgan ma'rifatparvar Eronliklarning intilishlari mahsuli edi.”⁵ Albatta mashrutiyatdan oldin ham adabiy shakllarni o'zgartirishga harakatlar bo'lgan. Bunga misol qilib XIX asr oxirlarida Mirzo Fathali Oxundzodaning Mirzo Og'oxon Tabriziyga yozgan nomasini ko'rsatish mumkin: “Bugun “Guliston” va “Ziynat-e majoles”larning davri o'tdi. Bugun millatning manfaatlarini o'zida mujassamlagan va kitobxonlarning tabiatiga marg'ub bo'lgan drama va romanning davri keldi.”⁶ Fikrimizcha, Oxundzodaning bu fikrlarini, hech shubhasiz, hikoya janriga ham tadbiq etish mumkin.

Ammo Eronda mana shunday o'zgarishlarga qarshi chiqib, qadim mumtoz uslubdan boshqa uslubda qalam tebratishni istamaganlar, yangicha uslubda yozishni tan olmagan adabiyot ahli ham juda ko'philikni tashkil etardi.

Mashrutiyat (مشروطیت), ya'ni konstitutsion tuzum davrining oxirlari –1915-yildan so'ng an'ana va yangilanish to'g'risidagi babsi yanada keng quloch yoyib ketdi. Bu bahsning markazi shoir va nazariyotchilar Malik ush-shuaro Bahor va Taqiy Ruf'atning “Doneshgoh” hamda “Jadid” nomli jurnallarida bosilayotgan maqolalari edi. Ularning mana shunday qotib qolgan adabiy vaziyatni o'zgartirishga, yangilashga bo'lgan sa'y-harakatlari, albatta, qarshiliklar, shubha-gumonlar, ikkilishlar bilan kutib olindi. “Tabriz ittifoqi uyushmasining a'zolari Taqiy Ruf'at, Lohutiy, Shams Kesmoiy, Ja'far Xomaneiylar Erondag'i ijtimoiy va siyosiy vaziyatdan rozi bo'lmanliglari kabi, adabiy vaziyatni ham qabul qila olmagan edilar.”⁷

M.Bahorning fikricha, qadimgi va mumtoz adabiy merosga suyanib, yangilanishni asta-sekinlik bilan tadrijiy amalga oshirish kerak edi. Ruf'at esa adabiy inqilob tarafdori edi. Bahor: “Yangilikka astasekinlik va yumshoqlik bilan yondoshish kerak, biz hali jadidlik boltasi bilan o'tgan adiblarimiz va shoir bobolarimizning tarixiy imoratini buzishga jur'at qila olmaymiz. Biz hozircha imoratning ba'zi joylarini ta'mirlab, yonida yangi devor va ustunlari bor baland binolar qurish bilan mashg'ulmiz”, – desa, Taqiy Ruf'at: “Yangilik inqilobdek gap, inqilobni ommaning ko'ziga doriga o'xshab “tomchilab” tomizish mumkin emas...shoir va adib “bajaruvchi” emas, “boshqaruvchi” ekanini tushuninglar...oqimga qarshi suzinglar...erta uchun yozinglar...Bugun ko'rib turganingizdek, Sa'diy ham bizga javob bera olmaydi. Sa'diyning tobuti sizning beshigingizni bo'g'adi! XIII asr XX asr ustidan hukmrondir. Lekin o'sha qadimiylar sizga aytadi: “Kim kelgan bo'lsa yangi imorat qurgandur...” Sa'diy o'z davrida ko'rsata olgandek o'z davringizda hech bo'lmasa istiqlol va yangilikni ko'rsating. O'tgan 700 yilning doirasida qolib ketmanglar...”, – deb javob beradi.⁸

¹ Фуломризо Муродий Савмаъсроий “Эрон ҳикоянавислиги тарихига бир назар”//Сино 2011 й 41-42-сонлар.

² حقوقی محمد، مروری بر تاریخ ادب و ادبیات امروز ایران، ۱، نشر. تهران 1377

³ جمال میر صادقی. ادبیات داستانی. قصه. رمان. داستان کوتاه. رمان. تهران 1376.

⁴ محمد قاسمزاده، داستان نویسان معاصر ایران. تهران 2004

⁵ دکتر حمید عبد اللہیان. کارنامه شر معاصر. تهران 2000 ص 22

⁶ آخوندزاده میرزا فتحعلی. تمثیلات. نشر اندیشه. تهران 1970 ص 68

⁷ صد سال داستان نویسی ایران. جلد اول و دوم با تجدید نظر کلی. حسن میر عابدینی. تهران 1383 ص 75

⁸ Доктор Мухаммадризо Рӯзбех. Ҳозирги замон Эрон шеърияти: “янги шеър”нинг тарихий таҳлили. Сино//2009 йил. Ёз-Куз-Қиши 34-35-36. 47-с.

Ruf'at ko'plab adiblar, hamfikrlarining yordami bilan adabiyot maydoniga kurashga chiqdi va jamiyat ehtiyojlariga asoslanib adabiyotni yangicha qabul qilish shaklini, konstitutsion inqilobidek (1905-1911-yillarda bo'lib o'tgan) adabiy inqilob qilish kerakligini muhokamaga qo'ydi. Ruf'at "Doneshkade", ya'ni "Fakultet" jurnalining a'zolari, an'ana tarafdarlari bo'lgan adiblar bilan adabiy yangilanish haqidagi suhbatda shunday deydi: "Biz, Sa'diy yashagan asrda mavjud bo'limgan narsalarga ehtiyojimiz bor. Biz, Sa'diy hatto tasavvur qilishga ojiz bo'lgan milliy va siyosiy qarama-qarshi jarayonlar ta'siri ostida qolganmiz... Aziz birodarlar, biz adabiy inqilobning eng og'ir damlarini boshdan o'tkaz-yapmiz... Biz xohlayotgan narsa adabiyot olamida, ya'nikim, fikr va san'at olamida yangilanish asrini vujudga keltirish bilan barobar. Ko'hna va eski, ammo hukmron adabiy holatni ag'darib, uning o'miga hukmronligi shu paytgacha mavjud bo'limgan yangi bir holatni o'rnataylikki, bizning va hamfikrlarimizning g'alabamizga aylansin."¹

T.Ruf'at fransuz va turk adabiyotidan ta'sirlangan holda, yangi avlod ehtiyojlariga javob bera oladigan yangicha adabiyotning talabgori edi. Yangi fikrlar yaratuvchi va his-tuyg'ularni yangicha tarannum etuvchi eng yangi adabiy shakllar haqida o'ylay boshlaydi. Zero "Jahon doimiy yangilanish, o'zgarishdadir va dunyoviy o'zgarishlar bilan hamqadam bo'lish kerak", degan edi u "Doneshkade" jurnaliga bergen intervyusida. Ruf'at o'z e'tiborini o'sha davrda tez yangilanayotgan adabiy shakl, til, uslubga qaratdi. Taqiy Ruf'at Eron adabiy tanqidining yetakchi vakillaridan biri edi.

Bu davrda yangi tipdagi hikoyaning eng asosiy adabiy nazariyotchisi va targ'ibotchisidan yana biri Muhammad Ali Jamolzoda edi. Jamolzoda ham Ruf'at kabi fors adabiyoti isloholini yangi adabiy turlar, yangi janrlarni qo'llashga bog'liq deb bildi: "Bugungi Eron adabiyotini rivojlantirishning eng to'g'ri yo'li shu mamlakat olim-u fuzalolari...adabiyotning barcha turlarida nasrdan tortib nazmgacha va xususan nasrda, ko'plab mamlakatlar adabiyotining bugungi kun oynasiga aylanib ulgurgan hikoya ustida ishlashlari va oddiy xalq iboralari va so'zlarini adabiy tilga kiritishlari kerak. Toki bizning adabiyotimiz ham sekin-asta o'z shukuhi va dovrug'iga ega bo'lib, qadimiy adabiyotimiz kabi har bir Eronlikning g'ururu iftixoriga aylansin."²

Muhammad Ali Jamolzoda nasmavislikda yangilanishni targ'ib qilar ekan, eng avvalo Erondagi adabiy qoloqlikka e'tiborini qaratib shunday deydi: "Taraqqiyot silsilasini qo'lga kiritgan barcha rivojlangan mamlakatlarda sodda va oddiy hammabop uslub boshqa uslublarni yengib chiqqan... Yozuvchilar hamisha bozor va ko'chalardagi odamlarning oddiy va keng tarqalgan tilini go'zal ibora va ifodalar bilan adabiy libosga burkab, san'atkorona nafosat bilan qog'ozga tushirayotgan bir paytda, baxtga qarshi, bizning Eronimizda avvalgi ajdodlarimizning uslubidan sal chetga chiqishni adabiyotning tanazzuliga sabab deb bilihadi. Umuman butun dunyoga mashhur Eron siyosiy istibdodining mohiyati adabiyot sohasida ham ko'zga tashlanadi, ya'ni yozuvchi shaxsi qo'liga qalam olar ekan bilimdon, o'qimishli odamlar guruhinigina nazarda tutadi, boshqalarga umuman ahamiyat bermaydi..."³

NATIJALAR. Albatta bu fidokor adiblarning urinishlari zoye ketmadi. Sekin-astalik bilan bo'lsa-da, tilda ham, shaklda ham, uslubda ham olg'a siljishlar ko'zga tashlana boshladи.

XIX asrning birinchi choragida hukmronlik qilgan Eron shohi Fathali Shohning (1794-1834) vorisi – ovro'palashtirish tarafidori Abbos Mirzo davridan boshlab nashrchilik, gazetalar chiqarila boshladи. Xohlovchilar Yevropa davlatlarida ta'lim olishga yuborildilar.

Eronda va mamlakat tashqarisida forschaga gazeta va jurnallarnig paydo bo'lishi bilan nasriy janrga qiziqish sezilarli darajada o'sdi. Garchi Eron jamoatchiligi tomonidan vaqtli matbuot sahifalarini bezab

¹ حسن میر عابدینی. صد سال داتان نویسی ایران. جلد اول و دوم با تجدید نظر کلی. تهران 2004 ص 76

² صد سال داتان نویسی ایران. جلد اول و دوم با تجدید نظر کلی. حسن میر عابدینی. تهران / 2004 ص 78

³ صد سال داتان نویسی ایران. جلد اول و دوم با تجدید نظر کلی. حسن میر عابدینی. تهران ص 77

turgan she‘rlar avvalgidek sevilib qabil qilinayotgan bo‘lsa-da, gazetalar betlarining asosiy qismini nasr egallay boshladi. “Gazetalarning har bir sonida she‘riy shaklda ifodalashning umuman ilojsi bo‘limgan mamlakatdagi ichki vaziyat, xorijiy siyosiy, iqtisodiy va madaniyat yangiliklari haqida ma‘lumotlar chop etilishi kerak edi. Gazeta va jurnallarda oddiy hikoyalar, kichik ocherklar va hatto feletonlar paydo bo‘la boshladi.”¹

Konstitutsion davrdan keyingi yillardan to 1921-yilning oxirlarigacha adabiy matbuotning gullabyashnagan yillari bo‘lib, asosiy e‘tibor bahs-munozaralar va adabiy anjumanlar tashkil qilishga qaratildi. “Bahor” (1910), “Kove” (1916), “Doneshkade” (1916), “Armo‘g‘on” (1918) kabi jurnallar bu davrda nashr etib kelingan jurnallar jumlasidandir. Bu jurnallarda mumtoz adabiyot namunalarining tahlili va Yevropa asarlarining tarjimalari nashr etilardi. Bu jurnallarning muntazam nashr etilishi adabiy jarayonlar rivojiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmadi. Adabiy didni shakllantirishda, jahon adabiyoti bilan tanishtirishda bu jurnallarning roli katta bo‘ldi.

Hikoyaning kirib kelishiga bo‘lgan oxirgi “qadam” tarixiy romanlarning yozilishi bo‘ldi. Muhammad Tohir Mirzo Aleksandr Dyumaning asarlarini tarjima qilishi bilan tarixiy romanlar yozilishiga yo‘l ochib berdi. A.Tolibov, Mirzo Malkumxon, Mirzo Oq‘oxon Kermoniy kabi Eronning qadimiy tarixi bilan yaqindan tanish bo‘lgan ma‘rifatparvar yozuvchilar Qojorlar hukmronligining so‘nggi yillarida, Eron har jihatdan eng og‘ir sharoitni boshidan kechirayotgan bir paytda o‘z asarlarida Ahamoniylar, Sosoniylar davri haqida yozdilar. Bunday asarlar xalq tomonidan juda iliq kutib olinar, asosan jurnal va gazetalarda nashr qilinib, o‘z mualliflariga shuhrat keltirardi. Ular sodda tili, his-tuyg‘uli, romantik sarguzashtlarga boy syujeti bilan endigina gazeta bilan oshno bo‘lgan o‘quvchi uchun o‘ziga xos joziba kasb etardi.

Hikoya janrining Eronga kirib kelishida yuqorida nomlari zikr etilgan to‘rt turdag'i asarlar tagzamin bo‘lib xizmat qildilar.

Ilk hikoyalar tarixiy romanlardan keyinroq, birinchi ijtimoiy romanlardan sal oldinroq nashr etila boshladi. Umuman olganda, 1920-yillarning boshi Eron zamonaliv adabiyotining turli ko‘rinishlarining namoyon bo‘lishini aniqlab bergan yillar bo‘ldi. Hasan Mirobidiniy aytganidek: “Ba‘zi davrlar tarixiy hodisalar va tarixiy dialektika isbotiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday davrlarni tarix javharining birlashuv nuqtalaridan deb bilmox kerak.”² Darhaqiqat, 1920-yillarning boshi mana shunday birlashuv nuqtalaridan hisoblanadi. Aynan shu davrda ilk ijtimoiy roman (Mushfiq Kozimiyning – ”تهران مخوف“ – جعفرخان از فرنگ آمده – “Ja‘farxon Fransiyadan qaytdi”), yangi drama (Hasan Muqaddam asari – ”Afsona“si) va ilk hikoyalar to‘plami (Muhammad Ali Jamolzodaning – ”يکى بود و يكى نبود“ – “Bor ekanda yo‘q ekan”) birin-ketin adabiyot maydonida paydo bo‘la boshladi. Bular bir tomonidan konstitutsion davrining ijtimoiy-madaniy harakatlari ta‘siri bo‘lsa, ikkinchi tomonidan keyingi adabiy izlanishlar uchun yo‘lboshlovchi vazifasini ham o‘tadi. Ammo so‘zlashuv tilidagi an‘anaviy qotib qolgan iboralar va zarbulmasallar, maqomatallarga bo‘lgan katta e‘tibor ilk hikoyalarda ulardan haddan ziyod iste‘foda qilishga olib keldi. “Bor ekanda yo‘q ekan” to‘plamida Jamolzoda ma‘lum ma’noda hikoya qolipida maqol va hikmatlarni jamlash, ularni saqlash uchun bir vosita sifatida foydalanganligini tan oladi.

Muhammad Ali Jamolzodaning 1922-yilda Berlinda ”يکى بود و يكى نبود“, ya‘ni “Bor ekanda yo‘q ekan” ilk hikoyalar to‘plami chiqdi. Bu voqeа yozuvchining yurti Eronda katta shov-shuvga sabab

¹ Комиссаров Д.С. Пути развития новой и новейшей персидской литературы.–М.1982. стр. 84.

² صد سال داتان نویسی ایران. جلد اول و دوم با تجدید نظر کلی. حسن میر عابدینی. تهران 2004

SHARQ MASJALI

bo‘ldi.¹ Shu to‘plami bilan u Eron adabiyotiga yangi janr – hikoyani olib kirdi. Uning nomi zamonaviy Eron adabiyotining asoschilaridan biri bo‘lib tarixda qoldi. To‘plamdan joy olgan hikoyalar satirik va humoristik ruhda bo‘lib, Jamolzoda xalq hayoti, urf-odatlari, rasm- rusumlarini ko‘rsata oldi, o‘tkir siyosiy mavzularni qalamga ola bildi.²

Muhammad Huquqiy o‘zining “Eron adabiyoti tarixi va zamonaviy adabiyotiga nazar” asarida Eronda hikoyaning asoschisi Sayid Muhammad Ali Jamolzoda ekanligini ta‘kidlab shunday deydi: “Eronda hikoyaning asoschisi Jamolzoda bo‘lib, olti hikoyani o‘z ichiga olgan “Bor ekanda yo‘q ekan” (1914-1921 yillar oralig‘ida yozilgan) to‘plamini yozgan va xalq orasida katta shov-shuvga sabab bo‘lgan.³ Adabiyotshunos G‘ulomrizo Murodiy Savma‘saroyi ham Jamolzodani hikoya janrining kirib kelishida yo‘lboshchi sanab, bu haqda shunday degan: “Bor ekanda yo‘q ekan...” jumlesi bilan fors adabiyoti tarixida eng muhim adabiy voqeа ro‘y berdi.⁴

Muhammad Qosimzoda o‘z asari “Eron zamonaviy yozuvchilari” asarining muqaddimasida hikoya janri Eronga g‘arbdan kirib kelganini ta‘kidlab, shunday deydi: “Hikoya shunday turki bizga g‘arbdan kirib kelgan. Yuz yillik yoki sal kamroq tarixga ega... Eronliklar hikoya janri bilan tanishganlarida uning qadimiylar bilan o‘xshashligi bois juda yaxshi kutib oldilar”⁵.

Oddiy xalq orasida qadimiylar bilan mashhur bo‘lgan. Ayniqsa Avfiy, Sa‘diy, Ubayd Zokoniy, Jomiyarning hikoyatlarini alohida ko‘rsatib o‘tish joizdir. Bizga ma‘lumki, “hikoyat sharq va janubiy sharqiy Osiyo xalqlarining adabiy termini. Har qanday she‘riy va nasriy asarni, ko‘pincha voqeaband asarni anglatadi. Tor ma‘noda esa muallifi yo‘q yozma nasriy epos.”⁶

Balki hikoyalarda qadimiylar bilan o‘xshashligi uchun ham sal oldinroq tarixiy roman bilan oshno bo‘lgan Eronliklar Jamolzodaning hikoyalarini Abdurahim Tolibov va Zaynalobidin Marog‘aiyning romanlaridanda ko‘ra ancha iliq kutib oldilar. Jamolzodaning hikoyalari qahramonlari odatda oddiy, besavod, to‘pori xalq vakillaridir. Hikoyalarining tili ham ba‘zan so‘zlashuv uslubida, ba‘zida esa mashhur iboralar va maqollar bilan yo‘g‘rilgan. M. Huquqiy Jamolzodaning uslubiga alohida e‘tibor berib yozadi: “Ba‘zi yozuvchilar uning hikoyalari tilini haddan tashqari xalq tilida, so‘zlashuv uslubida yozilganlikda, didsizlikda aybladilar. Boshqa bir guruh yozuvchilar esa vaziyatni, qahramonlarni qanday bo‘lsa shunday, xalq tilida bayon qilganini yoqlab, uning uslubini qo‘llab-quvvatladilar.”⁷

Rus sharqshunosi K.I.Chaykin ham aynan “Bor ekanda yo‘q ekan” to‘plami fors nasrining yangi yodgorligi sifatida yangi realistik matabning boshlanishini ekanligini e‘tirof etib shunday degan edi: “...va niyoyat Eron adabiyoti ming yillar mobaynida mistik oliy kuchlar pardasiga o‘ralgan, balandparvoz she‘riy uslub, behisob qoliplangan gullar, bulbullar va kapalaklar bilan xayrlashishga hamda real voqelik bilan yuzma-yuz kelishga qaror qildi”.⁸

Shu tarzda fors adabiyotida yangi tipdagи hikoya janri vujudga keldi hamda xalq og‘zaki ijodi, qadimgi va mumtoz fors adabiy merosi, yevropa va boshqa adabiyoti rivojlangan mintaqalar yutuqlari uyg‘unlashtirgan holda shakllanib bordi.

¹ Унинг бу илк тўплами Эронда – Техроннинг марказий майдонида омма олдида аксилинқилобчилар томонидан гулханга ташланди ва айнан шу “жазо” китобнинг машҳур бўлиб кетишига хизмат қилди.

² جمالزاده، یکی بود و یکی نبود. برلین. چاپخانه کاویانی. 1339 (1960).

³ حقوقی محمد، مروری بر تاریخ ادب و ادبیات امروز ایران. ص 45

⁴ Гуломризо Муродий Савмаъсаройи “Эрон ҳикоянавислиги тарихига бир назар”// Сино 2011.41-42- сонлар. 69-бет

⁵ محمد قاسمزاده. داستان نویسان معاصر ایران. تهران 2004 ص 59

⁶ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т. 2005. 11-том, 331-б

⁷ حقوقی محمد، مروری بر تاریخ ادب و ادبیات امروز ایران ص 46

⁸ Чайкин К. Краткий очерк новейшей персидской литературы.-М.:1928. С.144-145

SHARQ MASJALI

XULOSA. Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, fors adabiyotida hikoya janrining qaror topishida bir tomondan Eron xalqining boy adabiy merosi, ikkinchi tomondan Yevropa, Amerika va rus adabiyotining ta’siri katta bo‘lgan. Xususan o’sha davrlarda Eron nasriga ta’sir etgan eng buyuk xorij yozuvchilaridan Mishel Zevago, Aleksandr Dyuma, Gyote, Anatol Frans, Viktor Gyugo, Aleksandr Pushkin, Charlz Dikkens, Onore Balzak, Dostoyevskiyalar nomini keltirib o’tishimiz mumkin.

Albatta hikoya paydo bo‘lganining ilk yillarda adib va adabiyotshunoslar diqqatini, e’tiborini tortmadi. “Bor ekanda yo‘q ekan”ning muqaddimmasidan olingan quyidagi jumla Jamolzodaning xijo-latidan darak beradi: “Bu yozganlarimni jiddiy tatabbular, mashg‘ulotlardan olgan ko‘ngilochar g‘oyalarni hamda bugungi kun oddiy va iste‘moldagi fors tili namunalariga qo‘l urib yozdim.” U yozganlarini hech qayerda hikoya deb nomlamaydi. Bu jihat hikoyaning mustaqil adabiy janr sifatida, mumtoz adabiy matnlar ustida ilmiy izlanishlar olib borish avjiga chiqqan yillarda qanchalik e’tiborsiz bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘z davrining yetuk adibi Sodiq Hidoyat esa hikoyanavislikka bo‘lgan e’tiborsizlikni kinoya bilan, hazilomuz shaklda shunday bayon etadi: “Yozuvchilik chegarasi ijod ibtidosidan boshlab mana shu to‘rt mavzu – 1) ilmiy tadqiqot; 2) tarix; 3) tarjima va 4) axloq (didaktik asarlarni nazarda tutgan) bilan chegaralangan va agar biror kimsa mana shu to‘rt mavzudan tashqari biror so‘z desa va o‘zini yozuvchi atasa unday kimsani la‘natlamoq kerak.”¹

Biroq bu holat hikoyanavislikning rivojlanishiga to‘sqinlik qila olmadi. Ijodkor yozuvchilar tezkor va hozirjavob hikoya janriga qo‘l urib, ajoyib hikoyalarni armug‘on eta boshladilar. Hikoya tilining go‘zalligi, latofati va soddaligi bilan esa o‘z ixlosmandlarini topa bordi. Hikoyanavislik, adabiy shakllarni o‘zgartirishdan tashqari, asar tilini soddalashtirishda ham munosib ta’sir ko‘rsatdi. Yozgan asari xalq hayoti oynasi bo‘lishini istagan yozuvchi o‘z maqsadini xalq tushunadigan tilda yozishga intilishdan boshqa vosita orqali bayon eta olmas edi ham.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- آقا میرزا جلال الدین همایی اصفهانی. تاریخ (Mirzo Jaloliddin Humoiy Isfahoniy. Eron adabiyoti tarixi. Tabriz. 1930 /1309 ادبیات ایران. تبریز)
- سعید (Said Nafisiy. Eron adabiyotining muxtasar tarixi. Fors mamlakatining rasmiy solnomasi. 1932-1953 نفیسی. تاریخ مختصری ادبیات ایران. سالنامه رسمی مملکتی پارس. 1311 -1332)
- سعید نفیسی. شاهکارهای نثر فارسی معاصر . (Said Nafisiy. Zamonaviy fors nasrining shoh asarlari. Tehron. 1953. تهران. 1332/)
- رشید یاسمی. ادبیات معاصر. تهران 1316(1937) رشید یاسمی. ادبیات معاصر. تهران 1377(1998.)
- Muhammad Huquqiy. Eron adabiyoti tarixi va zamonaviy adabiyotiga bir nazar. Tehron 1998.)
- حسن (Hasan Mirobidiniy. Eron nasrchingilining yuz yili. 1-2-tomlar. Qayta to‘ldirilgan nashr. Tehron 2004) میر عابدینی. صد سال داتان نویسی ایران. جلد اول و دوم با تجدید نظر کلی . تهران 1383
- جمال میر صادقی. (Jamol Mirsodiqiy. Nasriy adabiyot. Qissa. Romans. Hikoya va roman. Tehron 1997) ادبیات داستانی. قصه. رمانس. داستان کوتاه. رمان. تهران. 1376.
- دکتر حمید عبد اللاهیان. کارنامه نثر (Doktor Hamid Abdullohiyon. Zamonaviy nasr solnomasi. Tehron 2000) دکتر حمید عبد اللاهیان. کارنامه نثر (2000) ص 60

¹ صد سال داتان نویسی ایران. تهران ص 60